Нусахаси

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI

Ro‘yxatga olindi:
№
2023-yil

“TASDIQLAYMAN”
SamDU rektori:
R.I.Xalmuradov
2023-yil “ ”

ADABIYOTSHUNOSLIK NAZARIYASI

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar soha
Ta’lim sohasi:	320000 – Gumanitar fanlar
Ta’lim yo’nalishi:	60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili

Samarqand – 2021

2021-yil 22-may 10-sonli yig'inishida muhokamadan o'tdi.

Kafedra mudiri **prof.Sh.A.Hasanov**

Fan dasturi fakultet uslubiy kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (25-may 2021-yil. № 8-son bayonnoma).

Fakultet uslubiy kengashi raisi **dots. Sh.Mahmadiyev**

Fan dasturi fakultet ilmiy kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (26-may 2020-yil. № 8-son bayonnoma).

Fakultet ilmiy kengashi raisi **prof.A.Pardayev**

Fanning dasturi Samarqand davlat universiteti kengashining 2020-yil 24-avgustdagi 1-sonli majlis bayoni bilan ma'qullangan.

O'quv ishlari bo'yicha prorektor: **prof.A.S.Soliyev**

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar
ANM1009	*2021-2022* *2024-2025*	*1-8*	*4-5=9*

Fan/modul turi	Ta'lim tili	Haftadagi dars soatlari
Majburiy	O'zbek	4

1.	Fan nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	JAMI (soat)
	Adabiyotshunoslik nazariyasi	150	120	270

2.

I. Fanning mazmuni

"Adabiyotshunoslik nazariyasi" fani ikki qismdan iborat bo'lib, 1-kursda "Adabiyotshunoslik nazariyasi", 4-kursda "Adabiyot nazariyasi" sifatida o'rganiladi. Badiiy asarni tahlil qilish uchun yollanma berish, badiiy matnni turli metodlar asosida har tomonlama ilmiy-estetik talilil qilish, adabiy jarayondagi poetik o'zgarishlarni, filologning ilmiy-estetik tafakkurini shakllantirish "Adabiyotshunoslik nazariyasi" fanining asosiy maqsadi sanaladi. Adabiyotshunoslik tarixi, zamonaviy adabiyotshunoslik orasidagi bog'lanishni tushuntirish, ijodkorning badiiy obraz yaratish, obraz, xarakter, badiiy tip, personaj kabi xususiyatlarni o'rganadi. Shuningdek, adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlarini, ilik shakllanish jarayonlarini sinkritik tarzda rivojlanib kelish sabablari, badiiy asarni ilmiy-estetik tahlil qilish, matnni tarkibiy qismlarga ajratish va ularning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash; badiiy asarlarni turli metodlar asosida tahlil qiiishni tushuntirish, bugungi jarayondagi badiiyat qonuniyatlarini tahlil etish.

Ushbu fan yuzasidan bakalavr talaba lirik, epik, dramatik janrlar, she'r tuzilishi, san'atning paydo bo'lishi haqidagi nazariyalarni, poetik tafakkurning o'ziga xos xususiyatlari, badiiy obraz turlari, badiiy tasvir vositalari, lafziy va ma'naviy san'atlarni bilishi va ulardan foydalana olishi lozim. Badiiy asarni nazariy jihatdan tahlil qila bilish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

II. ASOSIY NAZARIY QISM

(Ma'ruza mashg'ulotlari-1-kurs uchun)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi ma'ruza mavzulari kiradi:

Adabiyotshunoslik–badiiy adabiyot haqidagi fan. "Adabiyotshunoslik nazariyasi" badiiy adabiyot haqidagi fan ekanligi. Fanning predmeti, maqsad vazifalari va uning shakllanish sharayonini bilish, olingan bilmlarning asosida

badiiy adabiyotning poetik xususiyatlarini tahlil qilish haqidagi nazariy tushunchaga ega bo'lish. Ilk shakllangan adabiy qarashlar turli janrdagi asarlar tarkibida sinkiritik shaklda shakllanib kelganligini izohlash.

Badiiy obraz. Badiiy obraz, uning badiiy funksiyasi, xususiyatlari, obraz yaratish yo'llari, ijodkor mahorati kabi masalalarga nazariy jihatdan yondoshiladi. Tur va janrlar nuqtaiy nazardan obraz yaratish jarayonlari haqida tushunchaga ega bo'ladi.

Badiiy xarakter va adabiy tip. Badiiy asar xarakterlar yaratish san'atidir. Badiiy asardagi mukammal obraz – xarakter. Uning xususiyatlari, badiiylik funksiyasi. Adabiy tip, uning shakllanishi, tipiklashtirish qonuniyati va adabiy tip. Har qanday xarakterning shakllanish omillari, tipik va notipik holatlar.

Mazmun va shakl. Mavzu va g'oya. Shakl va mazmun haqida tushuncha. Shakl va mazmunning dialektik birligi, biri ikkinchisiga o'tib turishi, ularning badiiylik jihatdan uzviyligi. G'oya va mavzu rang-barangligi. Bosh g'oya va yordamchi g'olalarning badiiyatdagi mo'rni. Bosh mavzu va yordamchi mavzularning badiiyatdagi o'rni.

Badiiy asarda syujeti va kompositsiya. Badiiy asar sujet, uning tarkiy qismlari, qo'shimcha elementlari, uning badiiyatdagi o'rni. Sujet yaratish yo'llari. Sujet ta'rifi, xususiyatlari. Syujet – qahramonlar o'rtasidagi aloqa, munosabatlarni ifodalovchi, asar mazmunini tashkil etuvchi voqyealar tizimi. Sayyor (ko'chma) syujetlar. Fabula – asar uchun asos bo'lgan hayotiy voqyea-hodisalar. Syujetning tarkibiy qismlari. Ekspozisiya, voqyealar tuguni, voqyealar rivoji, voqyealarning avj nuqtasi, voqyealar yechimi. Badiiy asar kompositsiyasi, uning poetika tarkibidagi o'rni, kompositsion vositalar. Asar sarlovhasi, epigraf, boblar va qismlarning yozuvchi ideyasiga muvofiq joylashtirilishi.

Badiiy asar tili. Badiiy asar tili. Umumxalq tili, adabiy til, badiiy til. Badiiy nutuq tushunchasi va uning shakllantirish xususiyatlari. Badiiy, adabiy, umumxalq tili. Muallif, hikoyachi, personaj nutqi. Tavsiflash vositalari.

She'riy asarning o'ziga xosligi. Maxsus leksik qatlamlar. She'riy asardagi poetik ko'chimlar, ularning badiiy funksiyasi. She'riy asarda ohang, ritm, bo'g'in, turoq, turkum haqidagi nqazariy qarashlar. To'liq, och, ichki qofiya, zulqofiyatayn. Rukn. Bahr. Band.

She'riy sistemalar. Barmoq, aruz, erkin she'r tizimi. She'riy sistemalarning o'ziga xos tamoyillari. Barmoq she'riy sistemasida bo'g'inlar miqdorining tengligui. Aruzda hijolarning qisqa va cho'ziqligi. Aruzda ruknlar, bahrlar ularning ifodalanishi va turlari. Badiiylik va erkin she'r tizimi, sochma sh'erlar.

Adabiy turlar epos, lirika, drama. Epik tur janrlari. Badiiy adabiyotning turlarga bo'linishi.aristotil nazariyasi va adabiy turlar klassifikatsiyasi. Epik tur. Roman, qissa, hikoya janrlari. Tur va janrlarning farqli tomonlari, sabablari. Epik turning janriy ko'rinishlari. Epos va uning xususiyatlari

Lirik tur janrlari. Lirik tur janrlari, xususiyatlari. Lirik kechinma va lirik qahramon, uning poetik ifodasi. G'azal, ruboiy, tuyuq kabi she'riy janrlar. Bu janrlar o'rtasidagi farqli xususiyatlar. Mumtoz lirik janrlar va ularning badiiy ifodadagi o'rni. Keyingi yillardagi mlirik janrlar, badiiy ifodasi.

Dramatik tur janrlari. Dramatik turning badiiy xususiyatlari va dramatik asar yaratish an'anasi. Tragediya, drama, komediya janrlari. Drama janrlari, uning ko'rinishlari, tahliliy yondoshuvlar. Daramatik xarakter yaratish an'anasi, janriy ifodadagi o'rni. Keyingi yillardagi dramatik asarlar, o'zgarishlar, tahliliy yondoshuvlar. Tragediyaning qadimiy ko'rinishlari, badiiy xususiyatlari.

Badiiy uslub va ijodiy metod. Adabiy oqimlar. Badiiy uslub va badiiyatdagi o'rni. Asrlar davomida shakllanib kelgan uslub tushunchasi. Ijodiy metodlar. Realizm, romantizm. Realizmning hayotiy haqiqat bilan uzviyligi. Rozmantizmning tasvirdagi o'rni, ularning talqindagi o'ziga xosliklari. Metod – hayot hodisalarini tanlash, ularga muayyan dunyoqarash asosida yondashish, talqin qilish yo'li. Ijodiy uslublar: romantizm, realizm. Klassisizm yo'nalishi. Sentimentalizm, naturalizm, syurrealizm, ekzistensializm, simvolizm. Modern adabiyot. Ijodkor uslubi. Individual uslub xususiyati va ijodkor mahorati.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg'ulot talabalarni adabiyotshunoslik nazariyastga doir ma'lumotlar bilan mustaqil tanishishga, ularni adabiy asarni nazariy jihatdan tahlil va talqin qilishga yo'naltiradi. Talabalar to'plagan bilimlarini dars vaqtida munozara yoki suhbat, muammoli talqin ko'rinishida himoya qiladi. Amaliy mashg'ulollarda talabalar adabiyotshunoslik nazariyasi fanining o'ziga xos nazariy xususiyatlarini, badiiy asar shakli va mazmuniga doir ilmiy masalalarni o'rganadilar.

III.1. Amaliy mashg'ulot uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1.Adabiyotshunoslik – fan.
2.Hayot va badiiy adabiyot.
3.Badiiy obraz va uning xususiyatlari, turlari.
4.Badiiy adabiyotda tipiklashtirish.
5.Badiiy asarda mazmun, shakl, mavzu va g'oya.
6.Badiiy asar sujeti.
7.Sujet tiplarining xususiyatlari.
8.Badiiy asar kompositsiyasi.
9.Badiiy asar tili.
10.She'r tuzulishi.

Izoh: Mazkur ro'yxatdagi mavzulardan amaliy mashg'ulotlar uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda foydalanish tavsiya etiladi.

III.2. Semenar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.

Seminar mashg'ulotlari talabalarni adabiyotshunoslik nazariyasiga oid ma'lumotlar bilan mustaqil tanishishga, ularni nazariy nuqtai nazaridan tahlil va talqin etishga yo'naltiradi. Talabalar egallagan bilimlarini dars chog'ida munozara yoki ma'ruza shaklida himoya qiladi. Seminar mashg'ulotlarida talabalar adabiyotshunoslik nazariyasining ilmiy muammolari to'g'risida amaliy ko'nikma va malaka hosil qiladilar.

1.Badiiy til va uning o'ziga xos xususiyatlari.
2.Badiiy asar tilida ta'rif-tavsiflar.
3.Sujet tiplari va xususiyatlari.
4.Epik turning forma va janrlari.
5.Lirik janrlar.
6.Dramatik tur janrlari.
7.Badiiy uslub.
8.Ijodiy metod.
9.Adabiy oqimlar.

Izoh: Mazkur ro'yxatdagi mavzulardan semenar mashg'ulotlar uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda foydalanish tavsiya etiladi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik;
- seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik;
- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganisb;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'lim!ari yoki mavzulari ustida ishlash;
- talabaning o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fan bo'limlari va mavzulami chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari.

"Adabiyotshunoslik nazariyasi" qismi bo'yicha mustaqil ta'lim uchun quyidagi topshiriqlarni bajarish tavsiya etiladi:

1.Sharq klassik adabiyotida adabiy-tanqidiy fikrlar taraqqiyoti.
2.G'arb mumtoz adabiyotida adabiy-tanqidiy fikrlar taraqqiyoti.
3.Istiqlol va bugungi adabiy-estetik qarashlar.
4.Adabiyotning umumiy xususiyatlari.
5.Hayot va adabiyot.
6.Adabiyotning tasvir obyekti, predmeti, vazifasi
7.Badiiy psixologiz
8.Ijodiy jarayon
9.Maxsus leksik boyliklar
10.Badiiy – tasvir vositalari
11.Poetik sintaksis
12.She'riy san'atlar
13.Qofiya saboqlari va unsurlari
14.Mumtoz qofiya tiplari va turlari
15.Eposning kichik janrlari
16.A.Qodiriyning «O'tgan kunlar» romanida syujet bo'laklari
17.«O'tgan kunlar»da avtor nutqi va uning xususiyatlari
18.A.Qahhorning «Bemor» hikoyasi kompozitsiyasi
19.Odil Yoqubovning «Ulug'bek xazinasi» romanida obrazlar tasnifi
20.P.Qodirovning «Yulduzli tunlar» romanida hayotiy va badiiy haqiqat
21.«Muvozanat» romanida uch do'st obrazlari
22.Muhammad Yusuf ijodida xalqchillik
23.Hozirgi she'riyat haqidagi bahslar tahlili.
24."Dunyoning ishlari" qissasida o'xshatish san'ati.
25.Usmon Azim she'riyati va qo'shiq san'ati.
26.Zulfiya she'riyatida vafo pafosi.
27.H.Olimjonning "O'zbekiston" she'ri tahlili.
28.Hazar Eshonqul hikoyalari tahlili.

Izoh: tavsiya qilingan mazkur mavzulardan mustaqil ta'lim uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda foydalanish mumkin.

II qism. ASOSIY QISM
(4-kurs uchun)

I. Fanning mazmuni

Fanni o'qitishdan maqsad: Mazkur fanni o'qitishning asosiy maqsadi - badiiy asami tahlil qilish uchun yollanma berish, badiiy matnni turli metodlar asosida har tomonlama ilmiy-estetik talilil qilish, jahon adabiyotshunosligidagi metodlarni adabiy tur hamda janrlar bo'yicha yozilgan ilmiy asarlar misolida asoslab o'rganish, umuman, adabiyotshunosning ilmiy-estetik tafakkurini shakllantirish ushbu fanning asosiy maqsadi sahaladi.

Adabiyotshunoslik tarixi, zamonaviy adabiyotshunoslik orasidagi bog'lanishni tushuntirish; adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlarini o'rgatish;

badiiy asarni ilmiy-estetik tahlil qilish, matnni tarkibiy qismlarga ajratish va ularning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash; badiiy asarlarni turli metodlar asosida tahlil qiiishni tushuntirish; adabiyotshunoslik tarkibiy qismlari orasidagi bog'liqlikni ko'rsatish; o'zbek adabiyotshunoslarining maqola, taqrizlarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rgatish; talabaga san'at asarlarini his qilishini o'rgatish. "Adabiyot nazariyasi" fani dasturi Davlat ta'lim standartlari, namunaviy dasturlarga qo'yiladigan ilmiy metodik talablar asosida shakllantirilgan. "Adabiyot nazariyasi" fani bo'yicha bakalavr talaba adabiyotshunoslik predmeti va adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari, adabiyotshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi, adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi va adabiy tanqid, adabiy turlar va adabiy janrlar, ijodiy uslublar va ijodiy yo'nalish, she'r tuzilishi, badiiy obraz turlari, badiiy tasvir vositalari, lafziy va ma'naviy san'atlarni bilishi va ulardan foydalana olishi lozim. "Adabiyot nazariyasi" fanidan talaba adabiy asarlarning janrini farqlay olish, adabiy matnni asl manbasi bilan solishtira bilish, asar sujetini tarkibiy qismlarga ajratish, matndagi muallif va qahramon nutqini farqlash, badiiy asarni nazariy jihatdan tahlil qila bilish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

I. Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni.

Kirish. Adabiyotshunoslik nazariyasi fan sifatida. Adabiyot nazariyasining adabiyotshunoslik fani tarkibida tutgan o'mi; Adabiyot nazariyasining adabiyot tarixi, adabiy tanqid, adabiy manbashunoslik, adabiy jarayon, jahon adabiyoti, adabiyotshunoslik metodlari bilan aloqasi.

San'at – estetik hodisa. San'atning tabiati va turlari. San'atda inson ruhiyati ntasalasi. Adabiyot – so'z san'ati. Adabiyotning asosiy quroli so'z ekanligi. San'atning boshqa turlari bilan badiiy adabiyotning munosabati. Badiiy adabiyotda so'zning maqomi va tasvir imkoniyatlari.

Adabiy-nazariy tafakkur taraqqiyoti tarixidan. Adabiyotshunoslik tarixiga umumiy bir nazar; adabiy-nazariy qarashlarning mumtoz sharq adabiyotining takribiy qismi sifatida; mumtoz poetika asoslari; g'arb adabiy-nazariy tafakkurining yetakchi tamoyillari; adabiyot nazariyasi tarixida ilmiy atamalar masalasi.

Adabiyotning spetsifikasi. Adabiyotning o'ziga xosligining asosiy belgilari; badiiy adabiyotning vazifasi xususida; badiiy adabiyotning insonshunoslik ekanligi; badiiy adabiyot va ijtimoiy hayotning o'zaro munosabati; adabiyotda insonning ichki olarni tasviri; adabiyot va san'atda ruhiyat masalasi; inson his-tuyg'ulari va kechinmalarining badiiy tasviri.

Adabiyotda umuminsoniylik, milliylik va individuallik. Adabiyotning umuminsoniy mohiyati; bar qanday badiiy asar muayyan milliy zaminda yaratilishi; badiiy asar tabiatida xalqning orzu-armonlari, dardi, ruhiyatining aks etishi; adabiyotda individuallikning ilmiy-nazariy tavsifi.

Adabiyot shakli va mazmuni. Badiiy asar tarkibiga xos xususiyatlar; adabiyotda shakl va mazmun uyg'unligi badiiylikning eng muhim mezoni sifatida; poetik shakining o'zgarib borishi; shakibozlik muanunosi; badiiy asarning shakli va mazmunigaoid poetik unsurlar masalasi; mavzular tavsifti; mazrnun va g'oya munosabati; badiiy syujet tizim sifatida; syujetning badiiy asar takribidagi poetik funksiyasi; badiiy asar kompozitsiyasi va uning elementlari.

Obraz poetikasi. Badiiy asarda insonning murakkab dunyosi taiqini; obrazlarning turii nuqtai nazardan tasniflari; obrazda umumiylik va xususiylik; obraz va muallif munosabati; obraz va detal; obraz va so'z; obraz yaratish usullari; obraz, simvol, ramz xususida; badiiy obraz genezisi – maydonga kelish omillari xususida. Obraz va xronotop; sujet va obraz munosabati.

Badiiy asar xronotopi. "Xronotop"ning iug'aviy va istilohiy ma'nosi; badiiy asarda epik tafakkur ko'larni ; voqelik kechadigan makonning cheksizligi; adabiy makonga xos xususiyatlar; adabiy zamonning shartlanganligi; badiiy asarda makon va zamon uyg'unligi.

Poetik nutq va uslub. Poetik nutq va badiiy asar tili masalasi. Poetik nutqqa xos alomatlar. Badiiy nutq tarkibi. Badiiy asar pafosi va nutq munosabati; nasr va nazm. Muallif va qahramonlar nutqidagi individuallik; dialogik va monologik nutq. Poetik nutqda emotsionallik; nasriy asar ritmi. Badiiy nutq mezoni. Uslub va ijodkor. Kinoyaviy uslubga xos belgilar. Badiiy uslub va badiiy til. Uslublar xilma-xilligi. Uslubdagi individuallik.

Adabiy tur va janrlar nazariyasi. Adabiy tur tushunchasi va uning tasnifi. Adabiy tur va janrlaring paydo bo'lish masalasi. Adabiy janrga xos belgilar. Epik tafakkur spetsifikasi. Lirika va insonning ruhiyati, his-tuyg'ulari. Siyosiy, intim, tabiat lirikasi xususida. Lirizm va dramatizm. Satira va yumor mustaqil ijod turi sifatida. Dramatik asarlar va teatr san'ati. Adabiy tur va janrlardagi o'ziga xoslik hamda uyg'unligi. Tragikomediya.

Ijodkor dunyoqarashi va ijodkor laboratoriyasi. Ijodkor dunyoqarashining badiiy asarda aks etisbi. Dunyoqarash va ijodiy metodlarning o'zaro aloqadorligi. Romantizm va uning turlari. Romantizmda orzu-umidlar yoki tasavvurlar aks etishi. Realizm – haqqoniy tasvir. Modernizmning ichki oqimlari: ekzistensializm, simvolizm, futurizm, syurrealizm, postmodenizm va boshqalar. Jahon adabiyoti va san'ati tarixida oqim va yo'nalishlar ko'pligi; muallif "men"iga xos xususiyatlar; iste'dod ijodkorlikning bosh alomati; badiiy asar iste'dodli ijodkor poetik olarni ning mahsuli sifatida; ijodkorga xos ruhiy holatlar; badiiy asarning jamiyatga ta'siri; tarixiy-ijtimoiy hayotning badiiy asarda aks etishi.

Badiiy asarni qabul qilish va talqin etish yo'llari. Badiiy did masalasi;

retsepsion estetikaning mohiyati xususida; badiiy asami qabul qilishda yosh psixologiyasi; germenevtik tafakkur tarzi; badiiy asarni tushunish va tushuntirish yoilari xususida; badiiy asarni poetik tahlil etish usuli.

II. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulot talabalarni adabiyotshunoslik nazariyastga doir ma'lumotlar bilan mustaqil tanishishga, ularni adabiy asarni nazariy jihatdan tahlii va talqin qilishga yo'naltiradi. Talabalar to'plagan bilimlarini dars vaqtida munozara yoki nm'ruza ko'rinishida himoya qiladi. Amaliy mashg'ulollarda talabalar adabiyotshunoslik nazariyasi fanining o'ziga xos nazariy xususiyatlarini, badiiy asar shakli va mazmuniga doir ilmiy masalalarni o'rganadilar.

"Adabiyot nazariyasi" qismi bo'yicha amaliy mashg'ulot uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Sharq adabiy-nazariy tafakkuri tarixidan.
2. G'arb adabiy-nazariy tafakkuri tarixidan.
3. Badiiy adabiyot va folklor munosabati.
4. Badiiy obraz darajasi.
5. Roman janri xos xususiyatlar muhokamasi,
6. Nasriy asarda ritm. Saj haqida.
7. She'riy san'atlarni farqlash va aniqlash amaliyoti.
8. She'r vazniga doir amaliy mashg'ulot.
9. Badiiy asar pafosi muhokamasi
10. Ijodiy metod ustidagi bahslar.
11. Muallif, badiiy asar va jamiyat munosabati tahlili.

Izoh: Mazkur ro'yxatdagi mavzulardan amaliy mashg'ulotlar uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda foydalanish tavsiya etiladi.

III. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlari talabalarni adabiyotshunoslik nazariyasiga oid ma'lumotlar bilan mustaqil tanishishga, ularni nazariy nuqtai nazaridan tahlil va talqin etishga yo'naltiradi. Talabalar egallagan bilimlarini dars chog'ida munozara yoki ma'ruza shaklida himoya qiladi. Seminar mashg'ulotlarida talabalar adabiyotshunoslik nazariyasining ilmiy muammolari to'g'risida amaliy ko'nikma va malaka hosil qiladilar.

"Adabiyot nazariyasi" bo'yicha seminar mashg'ulotlari uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Adabiyotning funksiyasi.
2. Badiiy asar g'oyasi, mavzusi va estetik ideal.
3. Badiiy asar tili va poetik nutq masalasi.
4. Qissa janri va qissaxonlik.
5. Lirik tur spetsifikasi.
6. Dramatik tur, tragediya va tragikomediya.
7. Hajviy tafakkur tabiati: satira va yumor.
8. Ijodiy metod va adabiy oqimlar.
9. Adabiy-tarixiy jarayonda an'ana va yangilanish.
10. Ijodkor laboratoriyasi muammolari.
11. Adabiyot nazariyasi va adabiy jarayon munosabati.

Izoh: Mazkur ro'yxatdagi mavzulardan seminar mashg'ulotlari uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda fovdalanish tavsiya etiladi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik;
- seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik;
- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganisb;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'lim!ari yoki mavzulari ustida ishlash;
- talabaning o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fan bo'limlari va mavzulami chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari.

"Adabiyotshunoslik nazariyasi" qismi bo'yicha mustaqil ta'lim uchun quyidagi topshiriqlarni bajarish tavsiya etiladi:

1. Sharq adabiyotshunosligming o'ziga xos qirralari,
2. G'arb adabiy-nazariy tafakkuri tarixiga old manbalami o'qish.
3. Badiiylik mezonlari.
4. Obrazli tafakkur tabiati.
5. Obraz, xarakter, tip: umumiyiik vao'ziga xosliklar.
6. Ijtimoiy g'oya va badiiy g'oya o'rtasidagi umumiyiik.
7. Ijodkor shaxsiyati va ijodiy individuallik masalasi. Aruz vazni, barmoq vazni: nazariy adabiyotlar.
8. Adabiy jarayonda ijod va ijodkor muammosi.
9. Badiiy ijod psixologiyasi.

	10.Badiiy ijod va irrotsional tafakkur 11.Adabiyotda an'ana va navotorlik 12.Ijodiy metod va adabiy oqim masalasi 13.Postmodernizm va intertekstuallik. *Izoh:* tavsiya qilingan mazkur mavzulardan mustaqil ta'lim uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda foydalanish mumkin.
3.	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: - Adabiyotshunoslik nazariyasi fani bo'yicha bilimlarni shakllantirish, Adabiyotshunoslik nazariyasini adabiy janrlar, poetik tamoyillar, adabiy siymolar, ma'naviy-badiiy jihatdan yetuk asarlarni tahlil qilishga doir bilimlarni egallash va ularni amaliyotda tatbiq etish, bu jarayonni bevosita nazariy-poetik, adabiy-ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy sohalardagi amaliy ahamiyati *haqida tasavurga ega bo'lishi*; - Adabiyotining jamiyat tarixi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, insonni ezgulik va ma'naviy barkamollikka undovchi g'oyalar hamda inson pok tuyg'u va kechinmalarni o'rganishi, jahon adabiyoti namunalarini adabiy-estetik hamda ilmiy-nazariy nuqtai nazardan tahlil va talqin qilish malakasini hosil qilishni *bilishi va ulardan foydalani olishi*; - Adabiyotshunoslikda shakllangan adabiy oqim va yo'nalishlarni chuqur o'rganish asosida milliy badiiy-estetik tuyg'ularni taraqqiy ettirishi, jahon xalqlari madaniy-ma'naviy hayotidagi adabiy muhit, badiiy-estetika taraqqiyotining davr va bosqichlarni *bilishi va ulardan foydalani olishi*; - Adabiyotshunoslikdagi milliy va umuminsoniy an'analarni o'rganishi, adabiy-estetik didini yuksaltirishi, jahon adabiyoti namunalarining individual, milliy va umuminsoniy jihatlarini ilmiy tahlil qilish, jahon xalqlari adabiyotining millat, jamiyat ravnaqidagi o'rni va ahamiyatini tushunishi, jahon adabiyoti namunalarining mazmun mohiyatini anglashi, ularni filologik tahlil va tadqiq etish malaka va *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak*.
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • ma'ruzalar; interfaol keys-stadilar; • tarqatma materiallar; ko'rgazmali qurollar; • Kompyuter; Internet yangiliklari; • muammoli ta'lim; qiyosiy tahlil.
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish
6.	**Asosiy adabiyotlar:** 1. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. - T.: O'qituvchi, 2005. 2. T.Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent, O'zbekiston, 2002. 3. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. - T.: Navoiy universiteti. 2018. 4. H.Umurov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004 **Qo'shimcha adabiyotlar:** 5. Арасту. "Поэтика", "Ахлоки кабир", "Риторика" – Т.: Янги аср авлоди. 2011. 1. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. – Тошкент, «Ўзбекистон», 1993. 2. Umurov H. Adabiyot qoidalari. – T.: O'qituvchi. 2011. 3. Болтабоев Х., Махмудов М. Адабий-эстетик тафаккур тарихи. – Т.: Мумтоз сўз. 2016. 4. Karimov B. Ruhiyat alifbosi. – T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi. 2018. 5. Ulug'ov Abdulla. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi. 2018. 6. Yo'ldoshev Q. So'zyolqini. – T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi. 2018. 7. Nazarov B. Rasulov A. va boshqalar. O'zbek adabiy tanqidi tarixi. – T.: Tafakkur qanoti. 2012. 8. Фитрат. Танланган асарлар (Адабиётшунослик). – Т.: Маънавият. 2004. **Axborot manbalari (saytlar):** 1. http://www.literature.Uz 2. http://w3vw.ziyonet.uz 3. http://www.zivouz.com 4. http://www.turonlib.uz 5. 2. www.genhis philol.ru. 6. http://en.wikipedia.org/wiki/Structuralism
7.	Fan dasturi Samarqand davlat universiteti kengashining 2021-yil 24-avgustdagi 1-son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas'ullar:** Sh.A.Hasanov – SamDU, Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi kafedrasi mudiri, filologiya fanlari doktori, professor.

	A.N.Nasirov – SamDU, Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori
9.	**Taqrizchilar:** U.U.Qobilov – SamDU, Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori (ichki) A.Turobov – SamDCHTI professori, filologiya fanlari doktori (tashqi)

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI ISTIQLOL DAVRI
ADABIYOTI VA ADABIYOT NAZARIYASI KAFEDRASI
PROFESSORLARI HOTAM UMUROV VA AZIMIDIN NASIROVNING
"ADABIYOT NAZARIYASI" 60230100- FILOLOGIYA VA TILLARNI O'QITISH (o'zbek tili) bakalavr ta'lim yo'nalishi bo'yicha tayorlagan o'quv dasturiga TAQRIZ

Keyingi yillarda barcha jabhalarda bo'lgani kabi, ta'lim sohasida ham jiddiy o'zgarishlar ko'zga tashlanmoqda. Filologiya sohasida ham shunday o'zgarishlar yuzaga chiqdi. Shu jihatdan, olib qaralsa, bakalavr talabalariga "Adabiyot nazariyasi" fanining o'qitilishi bejiz emas. Filolog sifatida badiiy adabiyotning qonuniyatlarini, ijod va ijodiy jarayonlarni tahlil qiladi, o'rganadi, ma'lum bir asosli nazariy xulosalarga ega bo'ladi.

Yillar davomida shakllanib kelgan, uzoq tarixga ega bo'lgan, adabiyot nazariyasining o'rganilishi zamirida ham shunday asoslar mavjud. Badiiy asar jamiyatdagi turli jarayonlarni, muhit va shaxs konsepsiyasini juda teran va epik, lirik, dramatik planda talqin etadi. Bu jarayonlarni tahlil qilish esa, uning xususiyatlarini ko'rsatish adabiyot nazariyasininmg vazifasi sanaladi.

Dasturdan o'rin olgan mavzularning ilmiy-nazariy jihatdan qo'yilishi, ularning har biri o'ziga xos nazariy muammoni yoritishga bag'ishlanganligi kabi tushunchalar, dasturning asosli tuzilganligini, undan o'rin olgan mavzularning izchilligi esa asarlarni badiiy, poetik xususiyatlarini izohlashga, tahliliy va nazariy xulosalar chiqarishga keng imkon beradi.

Xullas, dasturdan o'rin olgan mavzularning mantiqiy izchilligi, davomiyligi, badiiy asarning poetik xususiyatlarini ochishga xizmat qiladi. Shuning uchun "Adabiyot nazariyasi" nomli o'quv dasturini o'quv jarayoniga tavsiya etaman.

SamDCHTI professori,
filologiya fanlari doktori **A.Turabov**

XODIMLAR BO'LIMI

A.TURABOV NING IMZOSINI TASDIQLAYMAN